<i>Бекбосынова З. К.</i>	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности	696
<i>Исмаилова Мадинабону</i>	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений	701
<i>Хамидова Нигора Тулкуновна</i>	
Raqamli ta'lim muhiti va uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta'siri	704
<i>Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "botanika" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	707
<i>Nasirova Shahlo Qutbiddinovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari..... 714 Aslanova Malohat Akramovna</p> <p>Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida..... 718 Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</p> <p>Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish 721 Ne'matova Diyora Dilshod qizi</p> <p>Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati 725 Pirimova Nargiza Adilovna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi..... 728 Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</p> <p>Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari 733 O'tahanova Manzura G'ofurovna</p> <p>Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context..... 736 Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</p> <p>Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni . 749 Altibayeva Malika Kuvandikovna</p> <p>Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari 752 Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</p> <p>Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar 757 Shukurova Nargiza Ikramovna</p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati 762 Xudoyberdiyev Sh. M.</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari..... 766 Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</p> <p>Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин) 770 Багирова Паринисо Бобировна</p> <p>Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar..... 775 Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</p> <p>Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili 780 Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</p> <p>Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari 784 Tovoshova Ozoda Akmal qizi</p> <p>Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish..... 789 Kaxarova Ozoda Abdimominovna</p> <p>Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri... 793 M. B. Pulatova</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili 796 Maraimova Muxtabar Pulatovna</p> <p>Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari..... 801 Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</p>
-------------------------------------	---



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	



Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
Sultonova Nurxon Anvarovna	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
Tolipova Shohista Qudrat qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
Turg'unova Gulzoda Botir qizi	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
Xalikova Zaxro Mirshadmanovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
Yoqubova Gulhayo Erkin qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
Bilolov Inomjon O'ktamovich	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi	
Родительские установки и развитие личности	941
Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи	



XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBADA PROGNOSTIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH YONDASHUVLARI

Ziyoda Urinbayeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
 “Matematika o‘qitish metodikasi va geometriya” kafedrası
 tayanch doktoranti

Annotatsiya: Xorijiy va mahalliy pedagogik tajriba asosida prognostik madaniyatni rivojlantirish yondashuvlari tahlil qilinib, ularning metodologik xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqotda prognostik faoliyatni rivojlantirishda modellashtirish vositalari, jumladan, Gantt jadvallari, mind map texnologiyalari hamda raqamli modellashtirish vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari asoslab beriladi. Shuningdek, prognostik madaniyat pedagog kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, uning pedagogik faoliyatni rejalashtirish, bashorat qilish va strategik qarorlar qabul qilishdagi funksional ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida prognostik madaniyatni shakllantirishning samarali mexanizmlarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: prognostik madaniyat, pedagog kasbiy kompetensiyasi, pedagogik prognostika, modellashtirish, Gantt jadvali, mind map, prognostik faoliyat, raqamli ta‘lim texnologiyalari.

Abstract: Approaches to the development of prognostic culture based on foreign and local pedagogical experience are analyzed, and their methodological features are revealed. The study substantiates the pedagogical potential of using modeling tools, including Gantt charts, mind mapping technologies, and digital modeling tools, in developing prognostic activities. Prognostic culture is also interpreted as a component of teachers’ professional competence, and its functional significance in planning, forecasting, and strategic decision-making in pedagogical practice is highlighted. The findings indicate the need to implement effective mechanisms for developing prognostic culture in teacher training and retraining processes.

Key words: prognostic culture, teacher professional competence, pedagogical forecasting, modeling, Gantt chart, mind map, prognostic activity, digital educational technologies.

Аннотация: Анализируются подходы к развитию prognostической культуры на основе зарубежного и отечественного педагогического опыта, выявляются их методологические особенности. Обосновываются педагогические возможности использования инструментов моделирования, включая диаграммы Ганта, технологии ментальных карт и цифровые средства моделирования, в развитии prognostической деятельности. Prognostическая культура рассматривается как компонент профессиональной компетентности педагога, раскрывается её функциональное значение в планировании, прогнозировании и принятии стратегических решений в педагогической деятельности. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости внедрения эффективных механизмов формирования prognostической культуры в процессе подготовки и переподготовки педагогов.

Ключевые слова: prognostическая культура, профессиональная компетентность педагога, педагогическое прогнозирование, моделирование, диаграмма Ганта, ментальная карта, prognostическая деятельность, цифровые образовательные технологии.

KIRISH

Globalashuv, raqamli transformatsiya va ta‘lim tizimida kechayotgan islohotlar pedagoglardan nafaqat mavjud vaziyatni tahlil qilish, balki ta‘lim jarayonining istiqboldagi rivojlanishini oldindan ko‘ra bilish qobiliyatini ham talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, pedagoglarda prognostik madaniyatni shakllantirish zamonaviy ta‘limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Prognostik madaniyat pedagogning kasbiy faoliyatida kelajak natijalarni bashorat qilish, pedagogik qarorlarning oqibatlarini oldindan baholash hamda ta‘lim jarayonini strategik rejalashtirish imkonini beradi.

Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarda prognostik madaniyat masalasi turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan bo‘lib, xorijiy tajribada bu tushuncha asosan kompetensiyaviy va refleksiv faoliyat bilan bog‘langan holda talqin qilinsa, mahalliy tadqiqotlarda pedagogik prognostika va ta‘lim jarayonini boshqarish bilan uzviy aloqada ko‘rib

chiqiladi. Shu sababli mazkur maqolada xorijiy va mahalliy tajribalarni taqqoslash asosida prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlarini tizimli tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi xorijiy va mahalliy pedagogik tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlarini aniqlash va ularning o'ziga xos jihatlarni ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Prognostik madaniyatni shakllantirish masalasi xorijiy pedagogik nazariyada avvalo tajribaga asoslangan ta'lim va refleksiv yondashuvlar bilan bog'liq holda o'rganilgan.

John Dewey 1916-yilda ta'lim jarayonini tajriba va tafakkur birligi sifatida talqin qilib, pedagogik faoliyatda kelajak natijalarni oldindan ko'ra bilish refleksiv fikrlash orqali shakllanishini asoslab bergan.

David Kolb esa 1984-yilda ishlab chiqqan tajribaviy o'qitish modelida bilimlarning siklik rivojlanishi jarayonida bashorat qilish, tahlil qilish va xulosa chiqarish bosqichlarini muhim omil sifatida ko'rsatadi. OECD 2019-yilda ta'limni kelajak kompetensiyalari bilan bog'lab, pedagoglarda strategik fikrlash va prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi, UNESCO 2021-yilda esa ta'limni istiqbolga yo'naltirilgan holda tashkil etish konsepsiyasini ilgari suradi.

Mahalliy va postsovet ilmiy maktablarida prognostik madaniyat masalasi ko'proq pedagogik prognostika va ta'lim jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan.

Boris Gershunskiy 1986-yilda pedagogik prognostikani ta'lim tizimining rivojlanish istiqbollari ilmiy bashorat qilishga qaratilgan mustaqil yo'nalish sifatida asoslab, unda tizimlilik va ilmiylik tamoyillarini ilgari suradi.

Klarin M.V. 2017-yilda innovatsion ta'lim jarayonlarida pedagogning oldindan ko'ra bilish qobiliyati innovatsiyalarni samarali joriy etishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu yondashuvlar prognostik madaniyatni pedagogik faoliyatni boshqarish va rivojlantirishning nazariy asosi sifatida talqin etishga imkon beradi.

O'zbek olimlari tomonidan prognostik madaniyat pedagog kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganilgan.

Abduqodirov A.A. 2019-yilda pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va natijalarni bashorat qilish imkoniyatlarini asoslab bergan.

Sayidahmedov N.S. 2018-yilda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda rejalashtirish va prognozlash muhimligini ta'kidlaydi.

Muslimov N.A. 2020-yilda kasbiy ta'lim metodologiyasida pedagogning strategik fikrlashi va prognostik faoliyati uning kasbiy yetukligini belgilovchi omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu ilmiy qarashlar prognostik madaniyatni shakllantirishda xorijiy va mahalliy yondashuvlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va sintezlash metodi orqali xorijiy va mahalliy manbalardagi nazariy qarashlar o'rganildi. Taqqoslash metodi yordamida turli ta'lim tizimlarida prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlarining umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida prognostik madaniyat pedagog kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilindi. Tadqiqotda pedagogik prognostika, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiya va modelashtirishga oid ilmiy g'oyalar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot metodlari maqola mavzusining nazariy yo'nalishga ega ekanligi inobatga olingan holda tanlandi.

Zamonaviy pedagogik nazariyada kasbiy kompetensiya pedagogning bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlarining integrallashgan majmui sifatida talqin etiladi. Ushbu majmua pedagogning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishi, ta'lim jarayonini boshqarishi hamda uning natijalarini baholay olishini ta'minlaydi. Mazkur kompetensiyalar tizimida prognostik madaniyat alohida ahamiyat kasb etib, pedagogning kelajak faoliyatini oldindan ko'ra bilish, ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarni bashorat qilish va strategik qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi.

Prognostik madaniyat pedagogning kasbiy faoliyatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- *birinchidan*, ta'lim jarayonining mumkin bo'lgan natijalarini bashorat qilish;
- *ikkinchidan*, pedagogik qarorlarning oqibatlarini oldindan baholash;
- *uchinchidan*, muammoli vaziyatlar yuzaga kelishini oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish.

Mazkur funksiyalar pedagogning kasbiy moslashuvchanligini va innovatsion faoliyatga tayyorligini oshiradi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijiy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish asosan kompetensiyaviy va amaliy yo'naltirilgan yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, pedagoglarning kelajakdagi pedagogik vaziyatlarni oldindan modellashtirish, muammoli holatlar uchun alternativ yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Bu borada John Deweyning tajribaga asoslangan ta'lim konsepsiyasi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, ta'lim jarayonida refleksiya va tajriba orqali kelajak natijalarni bashorat qilish pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi.

Xorijiy ta'lim amaliyotida prognostik madaniyatni rivojlantirishda simulyatsiya, ssenariyli rejalashtirish, ta'limiy modellashtirish va raqamli tahlil vositalaridan foydalanish keng tarqalgan. David Kolbning tajribaviy o'qitish modeli pedagoglarda prognostik fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Masalan, Finlyandiya ta'lim tizimi pedagoglarda prognostik madaniyatni shakllantirish borasida ilg'or tajribaga ega bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatda ta'lim jarayoni kelajak kompetensiyalarini oldindan prognozlash, ta'lim natijalarini istiqbolli rejalashtirish va o'quvchilarning rivojlanish trayektoriyasini bashorat qilish tamoyillari asosida tashkil etiladi. Finlyandiya ta'lim siyosatida pedagogning prognostik faoliyati kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Finlyandiya pedagoglarini tayyorlash jarayonida o'qituvchilarga ta'lim jarayonini modellashtirish, o'quvchilarning individual rivojlanish istiqbollarini oldindan baholash va ta'limiy qarorlarning uzoq muddatli oqibatlarini tahlil qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu jarayonda o'quv dasturlari moslashuvchan bo'lib, pedagoglar o'quvchilar ehtiyojlari va jamiyatning kelajak talablari asosida ta'lim mazmunini mustaqil loyihalash imkoniyatiga ega.

Finlyandiya ta'lim tizimida prognostik madaniyatni shakllantirishda ta'limiy modellashtirish, loyiha asosida o'qitish va refleksiv tahlil muhim o'rin tutadi. Pedagoglar o'quv jarayonining turli ssenariylarini oldindan ishlab chiqadi, kutilayotgan natijalarni baholaydi va zarur hollarda ta'lim strategiyasini qayta ko'rib chiqadi. Bu yondashuv pedagoglarda strategik fikrlash va bashorat qilish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Shuningdek, Finlyandiya tajribasida prognostik madaniyat ta'limni kelajak kasblariga moslashtirish bilan uzviy bog'liq. OECD va UNESCO tomonidan e'tirof etilganidek, Finlyandiya ta'lim tizimi pedagoglarning kelajakda yuzaga keladigan ijtimoiy, texnologik va kasbiy o'zgarishlarni oldindan hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishiga alohida e'tibor qaratadi.

Finlyandiya tajribasi pedagoglarda prognostik madaniyatni shakllantirishni ta'lim jarayonini loyihalash, modellashtirish va refleksiv tahlil asosida amalga oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu tajriba mahalliy ta'lim tizimida prognostik madaniyatni rivojlantirish uchun metodologik namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mahalliy tajribada esa prognostik madaniyatni shakllantirish pedagogik prognostika, rejalashtirish va ta'lim jarayonini boshqarish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Xususan, Boris Gershunskiy tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik prognostika konsepsiyasi mahalliy ilmiy tadqiqotlarda metodologik asos sifatida keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuvda pedagogik jarayonni oldindan bashorat qilish ilmiy tahlil va normativ talablar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, mahalliy ta'lim amaliyotida so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, Gantt jadvallari, mind map va modellashtirish vositalaridan foydalanish prognostik faoliyatni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Gantt jadvali pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishda samarali boshqaruv vositasi hisoblanadi. U o'quv faoliyatining asosiy bosqichlari, mazmuniy tarkibi hamda ularning bajarilish muddatlarini vaqt omili bilan uzviy bog'liq holda ifodalab, ta'lim jarayonining izchilligi va tizimlilikini ta'minlaydi. Natijada pedagogik faoliyatni rejalashtirishda tasodifiylik kamayib, maqsadga yo'naltirilgan yondashuv kuchayadi.

Gantt jadvalidan foydalanish o'qituvchi va ta'lim oluvchilarda prognostik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jadval asosida o'quv jarayonining kutilayotgan natijalari, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan faoliyat turlari hamda ularning muddatlari oldindan belgilab olinadi. Bu esa pedagogik jarayonning borishini bashorat qilish, o'quv yuklamasini oqilona taqsimlash va kutilayotgan o'zlashtirish natijalarini oldindan baholash imkonini beradi.

Mind mapdan foydalanish o'quvchilarda analitik va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Aqliy xaritalar orqali tushunchalar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalari aniqlanadi, asosiy va ikkilamchi ma'lumotlar farqlanadi hamda bilimlar o'zaro integratsiyalashadi. Bu jarayon ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytirib, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mind map pedagogik jarayonda prognostik fikrlash va rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchi yoki o'qituvchi aqliy xarita asosida mavzuning rivojlanish yo'nalishlarini, kelgusida o'rganiladigan bo'limlarni hamda kutilayotgan natijalarni oldindan tasavvur qilishi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonining istiqbolini modellashtirish va samarali tashkil etish imkonini beradi.

Modellashtirish pedagogik hodisa va jarayonlarning muhim xususiyatlarini soddalashtirilgan shaklda aks ettirish orqali ularni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Pedagogik modellashtirish prognostik faoliyatning metodologik asosi sifatida qaralib, ta'lim jarayonidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, muqobil rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish va pedagogik qarorlarning ehtimoliy natijalarini baholash imkonini yaratadi. Bu jihatdan modellashtirish vositalari pedagogga murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ularning kelajakdagi oqibatlarini ilmiy asosda bashorat qilishga yordam beradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy yondashuvlar o'rtasida metodologik farqlar mavjud bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi pedagogning kelajakni oldindan ko'ra bilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Xorijiy tajribada prognostik madaniyat ko'proq amaliy faoliyat, refleksiya va raqamli tahlilga tayyarnadi, mahalliy tajribada esa nazariy asoslanganlik, tizimlilik va normativ hujjatlarga moslik ustuvor hisoblanadi.

Mazkur yondashuvlarning integratsiyasi pedagoglarni tayyorlash jarayonida prognostik madaniyatni yanada samarali shakllantirish imkonini beradi. Xususan, xorijiy tajribadagi amaliy va innovatsion usullarni mahalliy ta'lim tizimining nazariy-metodik asoslari bilan uyg'unlashtirish pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, prognostik madaniyat pedagog kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u pedagogning ta'lim jarayonini oldindan bashorat qilish, pedagogik qarorlarning ehtimoliy natijalarini baholash va ta'lim faoliyatini strategik rejalashtirish qobiliyatini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari o'rtasida metodologik farqlar mavjudligini ko'rsatad-da, ularning umumiy maqsadi pedagogning prognostik fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligini tasdiqlaydi.

Modellashtirish vositalaridan, xususan, Gantt jadvallari va mind map texnologiyalaridan foydalanish pedagogik jarayonni tizimli tashkil etish, o'quv faoliyatining istiqboldagi natijalarini oldindan ko'ra bilish va ta'lim jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi. Shu bois pedagoglarni tayyorlash jarayonida modellashtirish vositalarini keng joriy etish prognostik madaniyatni shakllantirishning samarali yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gershunskiy B.S. Pedagogicheskaya prognostika: metodologiya, teoriya, praktika. – M.: Pedagogika, 1986. – 208 s.
2. Abduqodirov A.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.
3. Sayidahmedov N.S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2018. – 320 b.
4. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020. – 280 b.
5. Klarin M.V. Innovatsion ta'lim: pedagogik izlanishlar va tajribalar. – M.: Pedagogika, 2017. – 256 s.
6. Dewey J. Democracy and Education. – New York: The Macmillan Company, 1916. – 434 p.
7. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
8. OECD. Education 2030: The Future of Education and Skills. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 120 p.
9. UNESCO. Futures of Education: Learning to Become. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 98 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.